

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATNING
AHAMIYATI**

Bahronova Sabina Elmurod Qizi

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Baxriddinova Madina Sadriddin Qizi

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Habibullayeva Dilnoza Danaboy Qizi

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining bolalarning rivojlanishiga ta'siri, ularning tafakkurini rivojlanishiga qaratilgan jarayonlar haqida fikr yuritilgani.*

Kalit so'zlar: *sahnalashtirish, teatr, madaniyat, bola, jamoa, tomoshaxona, ertak, faoliyat, bilim.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirishning vazifasi bolalarni milliy mentalitetimiz, urf-odatlarimiz,qadriyatlarimiz ruhida madaniyatli qilib tarbiyalaydi. Bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagি bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib,ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning o'z fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlashdan iborat. Sahnalashtirish orqali bola o'z qobiliyatlarini va imkoniyatlarini ochib bera oladi. Bola jamoada o'zini o'rnini topa olishga qiynalsa bunday bolalar bilan alohida shug'ullanish lozim. Bolalarda estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi sahnalashtirishda muhim sanaladi Hozirgi kunda ma'lumki, teatrning turli xil turlari faoliyat yuritib kelmoqda. Bularga:komediya teatri, drama, xalq teatri, musiqali drama va komediya, opera, balet va qo'g'irchoq teatrlari shular jumlasidandir.Teatr so'zi yunoncha (tryation) so'zidan olingan bo'lib "tomoshaxona "degan ma'noni anglatadi.Teatr tomosha qilish orqali bolaning fikrlash doirasi kengayadi,tafakkuri shakllanadi,xotirasi yaxshilanadi.Bolalar bog'chasida bolalarga uzoq vaqtli spektakl va teatrlarni qo'yish noto'g'ri ularga qisqa va mazmunli, ibratlari ertaklarni qo'yish lozim. Rang-barang kiyimlar orqali bolalarda katta taassurot uyg'otadi va bayram ertaklari ko'tarinki ruh baxsh etadi. Bolalarning ruhiyati ham sog'lomlashadi. Sahnalashtirish faoliyati nutq ifodaliligini shakllantirish, entelektual va badiiy estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Bola tarbiyaviy ertaklar va teatrlarni ko'rish orqali xalqimizning boy ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi. Kattalarni hurmat qilish, jamoada ishlash, saxiylik qilish, o'zaro hurmat, yaxshi va yomonni farqiga borish, tabiatni asrab -avaylash, moddiy va ma'naviy meroslarimizga ehtiyotkorona

munosabatda bo'lish, Vatanni sevib-ardoqlash, har qarich tuprog'ini aziz va mo'tabar bilish hamda o'z yurti kelajagiga munosib yetuk farzand bo'lib yetishadi. Maktabgacha ta'lif tarbiyalanuvchilari ro'l o'ynash, qo'shiq aytish, raqsga tushishlarga tabiiy moslashishlari, teatrlashtirilgan va musiqali sahna ko'rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg'otib unda ishtirok etishlari mumkin. Aktyorlik mahoratini aniqlash uchun chizmalar va mashqlar aktyorlik mahorati personajning emotsiyal holatini tushunish va shunga mos ravishda personaj obrazni yetkazish uchun adekvat eksspressiv vositalar ovoz, mimika, pantomina, tanlash, harakat qobiliyatlarinining ifodadaligi tabiat, pantomimada harakatning tabiiyligi, sekinligi, impulsivligi, yuz ifodalarida boylik, qashshoqlik namoyon etishining jonliligi, nutqining intonatsiya ohangi, tempning o'zgarishi yuzaga keladi. Teatr va musiqa ijodiyotida bolalar ehtiyojini qondirish bilan birga muommolardan ozod qiladi. U quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo'shiq so'zlari hissiy tizimlar bilan bog'langanligi tufayli bola matnlar mazmunini tushina boshlaydi. Sahnalashtirish faoliyatida ijodkorlik interaktiv ta'lif, o'yin texnologiyalari audio yozuvlarni tinglash, xor yoki individual kuylash, oila bilan hamkorlik texnologiyalari misol bo'la oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlari ya'ni qahramonlarini yasash orqali, badiiy, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, bolalar bu jarayonda qo'l mehnatiga o'rganishadi, chizish bo'yash malakalari oshiriladi, tasavvur qilish, fantaziya, yasayotgan qahramonlarning ijodiy va salbiy hislatlari to'g'risida fikrlash bilan ularni bayon etish va eslab qolish qobiliyatlarini shakllanadi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli teatri bu qo'g'irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o'zlariga yaqin va tanish bo'lgan o'yinchoqlarni, turli xil hayvonlarni va ertak qahramonlarini jonli ravishda ko'radilar. Sahnalashtirish orqali mustaqil fikrlashga bo'lgan intilishlarini paydo qiladi, artikulatsiya apparati rivojlanadi, dialog va emotsiyal boy nutq shakllanadi. Agar mazmunini tushinib olish mantiq va voqelar ketma ketligini tizib chiqish yanada takomillashtirish, nutqiy muloqot elementlari rivojlanishiga yordam beradi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining alohida o'rni mavjud. Bog'cha yoshida bola ko'proq o'yinga qiziqadi. Bolalarning qiziqishlarini to'g'ri baholay olishmiz va o'yinlar orqali ularga bilim berishimiz lozim. Tarbiyachi bog'cha bolasiga mustaqil fikrlashni o'rgatishga ixtiyoriy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini bilishi va bolalarga rahbarlik qilib rejali ijodiy faoliyatiga yo'naltirishi lozim. Zero, bolalar ertamiz egalaridir. Vatanimizga munosib yetuk kadr tayyorlash bizning qo'limizdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Bola va zamon" №2/2007(7)
- 2.Maxamatova, F.(2020)Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari.

3.Davurova. G.(2020)Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatini tashkil etish.